

AJOYIB INSONLARNING BOLALIK KEZLARI

Nilufar KENJAYEVA
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi biografik qissasida aks etgan bolalik ruhiyatining ko‘rinishlari, adib ijodiy va shaxsiy barkamolligi yo‘lida kimlar asosiy o‘rin tutgani, ijodkor ruhiyatining shakllanishida muhim bo‘lgan omillar, oilaviy muhit, bobo-nevara munosabatlari, o‘zbek milliy qadriyatlarining to‘la timsoli onaning farzand kamoli yo‘lida hayot kechirishi, bir necha ijtimoiy xalqlarning davr muammolari ostida birlashishi va munosabatlari, ijtimoiy muhit, undagi insonlarning san’atga bo‘lgan munosabati, xalqning farzandlar tarbiyasiga qaratilgan turli qarashlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Biografik metod, biografik qissa, bolalik ruhiyati, ijtimoiy muhit, bobo-nevara munosabati, ona timsoli, san’atga munosabat, ijodkorlik ruhiyati.

Biografik metod tamoyillari asosida asarni tahlil qilganda asari orqali yozuvchi-ijodkor shaxsini hayoliy gavdantiramiz, uning turmush tarzi, oilaviy muhiti, hayot tajribalari, dunyoqarashlaridagi o‘zagrishilari, ijodkor kamolida o‘rin tutgan barcha biografik omillar ta’siri o‘rganiladi. Ammo ustoz, Baxodir Karim “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” qo‘llanmasida: “Adabiyotshunoslikda bir metodni haqiqatni anglash uchun yagona yo‘l sifatida hech kim mutloqlashtirmasligi lozim” -deya ta’kidlaydi.

Olim-u ijodkor insonlarining qalblari keng, dunyosi go‘zal bo‘lmog‘i lozim. Oybek kabi insonlarning bolalik kezlari, hayotini o‘rganish adabiyot olamining bir qancha muammoli-tugunli savollariga javob berib, ularning yangi qirralarini kashf etadi, kelajak avlodni tarbiyalashda nimalarga e’tibor qaratish lozimligini ham uqtiradi.

O‘zbek adabiyotida Oybek ijodini o‘rgangan olim va adabiyotshunoslar soni yetarli. Ulardan samarali ijod qilgan olimlar Homil Yoqubov, Matyoqub Qo‘shjonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim G‘afurovlar zabardast oybekshunoslar sifatida qaraladi. Biz adibning bolalik pallalari asarlarida qay tarzda badiiy takomil topganligini kuzatib boramiz

International Conference on Education and Innovation

“ Bolalikda ko‘rganlarim, eshitganlarim hammasi esimda. Ayrim hodisalar, xotiralar hozir ham quyoshdan bir tomchi kabi yalt etib ketadi xayolimda.

Umuman aytganda, bizning bolalik hayotimiz bo‘sh, bema’ni, zeriktirgich, qayg‘u-alamga to‘la bir hayot bo‘lgan.“⁴³

“Bolalik xotirlarim” qissasida bayon etilishicha, Oybekning kamolotida momosi va bobosidagi, onasi hamda tog‘alaridagi insoniy fazilatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Qissada Oybekning onasi Shahodat opa juda orasta, sabr-qanoatli, pazanda o‘zbek ayoli timsoli sifatida gavdalanadi. Uning ro‘zg‘or tutishi, kirlarni oppoq qordek qilib yuvishi, tinimsiz mehnat qilishi, yaxshi kelin ekanligini va biron marta qaynonasi bilan tortishmaganligini bildiradi, farzandlarining ilmi bo‘lishi uchun uyda qo‘shimcha to‘qish ishlari bilan ham shug‘ullangani ma’lum bo‘ladi. Oybekning onasiga bo‘lgan dil izhorlari ushbu quyima satrlarda tiniq ifodalangan. Yoz chog‘i...
Sen yakka ariq bo‘yida

Yodingga kelgan bir dardli qo‘shiqni
Kuylab sekingina... xayol qo‘ynida
Qatim tortib quchding umid-to‘piqni.

Quyilarkan sekin ruhsiz oqshomlar
Sening yoniq ko‘zlaring qorachig‘ida,
Kunduzgi mehnatning izlari qator...
Biz-la o‘ltirarding ayvon burchida.

Shoir she’rida yettinchi lampaning “olov tilchasi”da tunlari o‘tirib do‘ppi tikkanligini eslaydi. Turmush kechirish maqsadida tikilgan bu do‘ppillarni Musavoy bozorga olib chiqib sotib, bir necha tangani belbog‘iga tugib olib kelardi. Qissada Oybek Shahodat opani o‘zbek ayoli timsoli sifatada tasvirlashi bilan birgalikda uning

1. ⁴³ Oybek. «Bolalik xotirlarim». -T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019

International Conference on Education and Innovation

kitobga, ilmga bo'lgan munosabatlari ham xotirlangan. Shoir she'rida ham bu xotiralarni aks ettirgan.

O'qirding ichingda... Mendan-da uyqu-
Qochardi... Boqardim ma'yus, jimgina,
Bolalik sevgim-la, oltin sevgim-la...
U onlar ko'nglimdan o'chmaydi mangu!...

Adibning kamolotga yetgan yetuklik davrlaridagi biografik ma'lumotlarida ijodkorning onasi bilan bog'liq voqea-hodisalar deyarli uchramaydi. Onasining vafotidan yetti yil o'tib qalamni qo'lga olib she'r yozishga jazm etgan adibni adabiyotshunos tanqidchilar malomatga olishdi. Umrini jamiyatning farovonligiga bag'ishlagan jonkuyar inson, ijod mas'uliyati bilan tinmagan olim biografiyasidan kelib chiqib she'rni ongli mushohada etsak, yozuvchi ruhiyati aniq tushunilib, uni his etish qiyin bo'lmaydi. Oilaning kenja farzandidek bo'lib ulg'aygan adibga oila mehri to'kisligicha berilishiga erishilgan. Har onda onasi, buvilari va bobolarining, tog'alarining, opasining, yoz davomida esa otasi bilan birgalikda yashab oila to'liqligi mehrini ko'rgan adib, ko'ngilda hotirjamlik bilan yillar davomida o'qib sayqallandi, jamiyatda o'z o'rniga erishib jamiyat va xalq uchun xizmat qila boshlaydi. Adibning jonkuyarlik bilan amalga oshirgan ishlari va millat uchun qilgan xizmatlari „oqlash“ga asos bo'la oladi. Yozuvchining ushbu she'riy ijodining mohiyatidan anglash mumkinki, yosh Musoning qalbida Shahodat aya chuqur muhrlangan. Oybek onasining siymosini so'zlar tizgini bilan chizishda, balki yetti yil, balki butun umr qalami ojizlik qilishi mumkinligidan qo'rqib qo'l urolmagandir.

Oybekning zamondoshlari uning kechalari bilan ishlab chiqishini onasining qonidan o'tganligini ko'p bora aytishgan. Shahodat opaning tabiatidagi moslashuvchanlik, sabr-mulohazalik kabi xarakterlari sabab farzandlarining iqboli go'zal bo'lgan. Oybekda bolalik ruhiyatiga salbiy tasir o'tkazadigan oilaviy xotiralar hech o'rinda gavdalanmaydi. Ayonki, bunda Shahodat ayaning o'rne beqiyos. A.Qahhorning hayotiga nazar solsak, „O'tmishdan ertaklar“ qissasida yozuvchi bolalik xotiralaridagi nafrati va o'ylarini yashirmasdan to'kadi. Undagi bolalik davrlarini bir

International Conference on Education and Innovation

qaraganda, jamiyat va ijtimoiy muhit o'g'irlagandek ko'rinadi, ammo bu davrda Oybek, G'. G'ulom ham yashab ijod qilgan-ku...?!

Oilaviy muhitning barqarorligi bola ruhiyatining go'zal bo'lishi bola ruhiyatining ijobiy shakllanishida katta omil bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy davr sabab faqat yashab qolish uchun harakat qilib, doimiy mehnatda bo'lgan G'.G'ulomda bolalik xotirlari keng, tizginli tarzda ifodalanmaydi. Shu sabablikim, balki ba'zi adabiyotshunoslar „Shum bola“ ni biografik asarlar sirasida sanashda ikklanishar.

Oilaviy muhit yaxshi bo'lsa tarbiyalanayotgan farzandlar jamiyatning oldi va yuzi bo'lib yetishadi. Oybekning tarbiyasida uning oila a'zolari katta o'rin tutadi. Oybek erka farzand bo'lganligi bois uning xarakterida shumlik biroz yuqori bo'lgan, ammo Shahodat ayaning tarbiyadagi sabri va mulohazalari sabab uning xarakteridagi bu cho'qqilar yo'qolib boradi.

Bolalik shumliklari, sho'xliklari G'.G'ulomga ham juda xos xislat, ularning tabiyatida o'xshashlik mavjud, ammo Oybek bu shumliklarni vaqtida o'yinqaroqliklari bilan yo'qotib borgan bo'lsa, G'.G'ulomdagi bu tabiat bolalik qiyinchiliklar sabab, unda bola qalbi bo'lib butun umr saqlanib qoladi. Shumlik va shaddodlik G'.G'ulomning o'ziga xos, ajralmas xislati bo'lib qolgan.

Oybek ijodiga nazar solar ekanmiz uning olimlik va odamiylik fazilatlari uyg'unlashganligi shohidi bo'lamiz. Bolalik chizgilari adibning „Bolalik xotirlarim“ qissasida biografik metodning tamoyillariga asoslanganligi sababli bolalik ruhiyati qolipli va biroz chegaralanib qoladi. Shunga qaramasdan Oybekni yosh Muso sifatida kashf qilish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Baqollarning do'konining tasnifida Oybekdagi bolalikning hayrati va jozibasi ko'rinadi: “Sobir baqqolning do'koniga bir zum ag'rayaman: eski, pachoq qo'l tarozisini o'ynagim keladi. Keyin, pastak kursichada mudrab turgan yum-yumaloq, sep-semiz Niyoz qassobga ham qarab qo'yaman. Atrofida g'uv-g'uv uchgan arilardan qo'rqmaganiga hayron qolaman.”⁴⁴

⁴⁴ Oybek.Bolalik xotirlarim.-T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019

International Conference on Education and Innovation

Ushbu qissada bozor tasviri qaysiki, o'rinda bo'lmasin, albatta, Oybekning keng va joyli tasnifi bilan tanishamiz. Yangibozor tasnifida ham Xumsonning tasnifida ham yoshgina Musavoyning bozor taassurotlari ancha keng va har bir jarayonga e'tiborliligi diqqatga sazovorlidir. Chit matolar kirib kelishining evaziga Toshkentda bo'zchilikning kasod bo'lishi, bunga nisbatan oila a'zolarining fikr-munosabatlari Musavoyda jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq bo'lmaslik, uni kuzatish, tushunishga bo'lgan harakatli xislatlarni shakllantirgan. Bozor tasviriga zamondosh adib G'afur G'ulom ijodida ham alohida e'tibor qaratiladi:

„Bozorda sanqib yurgan biz, daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor, mahalla, ko'cha-ko'y jinnilari edi.“⁴⁵ O'zbek bolalaridagi bozorga oshiqlik, ulardagi qiziqish, kuzatuvchanlik xususiyatlari shu o'rinlarda namoyon bo'ladi.

Ijodkorlar tabiyatidagi bolalik xislatlarining yana bir mushtarakligi kiyimga bo'lgan munosbatida ham ayon bo'ladi. Naim Karimov izlanishlarida Oybek o'z portretiga emas, liboslar portretiga ko'proq e'tibor qaratganligini ta'kidlaydi. Goh chamandagul do'ppisini, goh yangi olgan mahsisi, goh kiyimlarining holatini batafsil aks ettiradi.

Oiladagi ilmga bo'lgan chanqoqlik bobosi va momosida ham ko'rinadi. Yosh Musoning xotiralarida momosining har bir gapida maqol yoki iborani qo'llab ishlatishi, muhrlanib qolgan. Bobosi ham nevarasining ilk bolalik davrlaridan mehrini qozonib har xil ertak va „ashula“lari bilan keyinchlik Oybekning sog'inchlariga aylangan. Oybek maktab yoshiga yetmasdan „cho'pchak“ aytishni bilgan. Uning tilidan aytilgan „cho'pchak“lar zamonaviy texnologiyalar bo'lmagan bir davrda yosh-u undan kattalarning ham qiziq bir ermagi sanalgan.

Dadaqo'zi ota insoniy fazilatlarni qadrllovchi to'g'ri tarbiyali, diyonatli, ko'ngilchan va mehribon inson bo'lgan. O'g'li Toshmuhammadning do'koniga o'g'ri tushib, Xumsondan qaytib kelgach:

⁴⁵ G'.G'ulom. «Shum bola». «Yangi asr avlodi», 2015

International Conference on Education and Innovation

„Hamma jim, qotib qoladi. Uzoq sukutdan so‘ng birdan bobomning fig‘oni falakka chiqib ketadi, u jahl ustida to‘lqinlanib gapiradi:

-Xumson rasvo bo‘ldi, degin, ha, axir odamlari insofli edi-ku?!“– deya kuyunadi.

Yillar davomida tuya bilan dasht-u toshlarni kezgan bobosining joylardagi xalqlar borasida o‘z qarashlari mavjud bo‘lgan. Yangibozordagi qozoqlar bilan birgalikda ishlashini ham otasi Toshmuhammadga bobosi tavsiya qiladi. Qozoq xalqining insonlarini to‘g‘ri-diyonatli, odobli, shafqatli, toza xalqli insonlar deb biladi. Toshmuhammad aka qozoqlar bilan yillar mobaynida birgalikda ishlaydi. Ularning tabiatiga va yashash tarziga moslashib, qozoq xalqining hurmatiga erishadi.

Momosining tabiyatidagi o‘zbek oilalariga xos bo‘lgan tejamkorlik, o‘zbekona andishaga qattiq yondashuv holatlari yosh Musoning vaziyatdan yengil va ildamlilik bilan chiqib ketish xarakterini shakllantirgan:

Bobom darrov ishlaridan, narx-navodan surishtira boshlaydi. Pochcham har vaqtdagiday so‘kfurushlidan, tirikchilikning mashaqqatlaridan, hayotning og‘irligidan shikoyatomuz so‘zlaydi. Men jimgina pochchamning og‘ziga qarab o‘tiramani. Ayniqsa, uning o‘siq qoshlarini, sertomir bo‘ynining qaltirashiini, tomog‘idadan choyning qult-qult o‘tishi va chirik tishlari orasida qandning qusurlashini tomosha qilaman. Pochchamni juda tez unataman, dasturxondagi qand, parvarda va turli mevalar ko‘zimni oladi. Patnisni tiq-tiq etib, chetini chertib qo‘yaman, lekin qo‘l uzatishga buvimdan qorqaman. Buvim ham mening bezovtalanganimni darrov seza qoladi.

-Muncha g‘ivirlaysan, jim o‘tir, o‘ynab kelsang bo‘lmaydimi!-deb turtib qo‘yadi.

-O‘zim...Parvardani sanayapman ichimda,-deyman izza bo‘lib.

Bobom qotib kuladi.

-Ol, ol, xuvari,-deydi bobom parvardani ko‘rsatib.

Buvim bitta oq qand va bitta parvardani uzatadi.

-Bor, ket, yo‘qol, ko‘chaga jo‘na, yeganing hamisha shirinlik, issig‘ing oshmaganiga hayronman,-deydi noxush ohangda.

International Conference on Education and Innovation

*-Sandiqning kaliti o'zingizda-ku, qachondan beri bermaysiz, toshday qattiqsiz,-
deyman buvimga,qandni qusurlatib*

Yosh adibning bu kabi gaplarni bolalarga xos bo'lmagan, kattalardek topib gapirishi sabab, Dadaqo'zi ota unga "qurvaqa"-deya laqab qo'yadi. Bo'ladigan bola boshidan, deganlar. Musodagi g'ayrat va shijoat yorqin bo'lgan. Bizning dono xalqimizning bu gaplarining to'la haqiqati Oybekning ushbu gaplarida ayon bo'ladi:

-Qayoqqa boramiz, buva, Mirahmad buvaning oldigami? Yaxshi ko'raman-da o'rtog'ingizni,-deyman bobomning oldida pildirab.

-Ha, xumpar, bilasan o'zing, -javob beradi bobom kulimsirab.

-Tez-tez yuring-e, buva, muncha imillaysiz, -deyman to'xtab.

-Qanday qilay, bolam, qarib qoldim, misoli bir quruq daraxtman-da...

To'rt-besh yoshli bola uchun kattalarcha ba'zi o'rinlarda fikr bildirishi va g'ayrati bilan qaysiki zamonda bo'lmasin har doim atrofidagi insonlarni shoshirib qo'yadi. Shu sabablikim, balki bobosi uning taqdiriga katta umid bog'laydi. Otasini o'qitilmaganini aytib, endi yosh Musoning chalasavod bo'lib qolmasligiga undovchi pand– nasihatlar berib boradi. Opasi Karomat o'qigan Mashrab g'azallari yoki Quronni bir–ikki o'qishida Muso yodlab olgan, bu zehning Dadaqo'zi ota katta ishonch bog'laydi. Oybek tarbiyasida bobosining ahamiyatli, Dadaqo'zi otadan keyin ham uning tarbiyasiga ona tomonidan bobosi befarq bo'lmaydi. Toshmuhammad aka ko'p safarda bo'lganligi bois onasi Musoning tarbiyasida bobosiga tayanadi.

Ustoz akademik N.Karimov Oybekdagi nozik did va tuyg'ularni uning otasi va bobosi tasirida shakllanganligini aytadi. Qushlarga bo'lgan ishtiyoq, kuylariga bo'lgan oshuftalik har uch avlodda ham ko'rinib turadi. Buvisi Hurmatbibi ham qushlarni avaylab, ularning polaponlariga ozor berishdan qo'rqib yosh bolalardan ularni himoya qilib yuradi. Onasi tomonidan buvisi Hurmatbibi: savlatli, to'lagina, oppoq, ko'zlari yirik, ziyrak va shirinso'z ayol bo'lgan. Qushlarga kichik beozor jonzot sifatida mehribonlik ko'rsatish, ularni avaylash Oybek atrofidagi yaqinlari sabab go'zal shakllanib bordi: Hoji, A'zam va Musolar o'ynab ikki qavatli tom ustiga jibljibon izlab chiqishadi, yosh Muso jibljibonning tuxumlariga tegmasligini, ular ochib

chiqishgandan so‘ng, poloponlarini ko‘rish uchun keyin yana kelishishini aytadi. Bu mehribon tabiatlilik, ehtiyot bo‘lish tarbiyasi buvisining e‘tibori va tarbiyasi o‘laroq shakllangan. Texnikumda birga o‘qigan do‘sti Homil Yoqubovning tarificha, Muso juda tasirchan yigit, rahmdil, hassos bo‘lgan, hattoki, u ayrim she‘rlarida ovchilarning qush otishidan, bolalarning qo‘ng‘iz tutishidan, parranda va o‘simliklarga ozor berishidan dili og‘rib ifoda etganligini aytadi.⁴⁶

Tabiatni sevish, unga oshiq bo‘lish ham Oybekning yoshlikdan u bilan birgalikda ulg‘aygan ulkan orzusi va maqsadiga aylandi. Issiq-havolarda, sarotan kezlarida Yangibozor cho‘llariga shirin hayol bilan qilgan sayohatining ba‘zi o‘rinlarida ham bu maqsad yanada qat‘iylashib boradi. Yosh yozuvchining ko‘nglini bog‘ yaratish orzusi egallaydi, uning suvlari ko‘p bo‘lishini, qovun –tarvuzlarining seroblighi, uzumlarining seroblighi, daraxtlarini sanoqsiz bo‘lishini va dala shamolining g‘ir-g‘ir aylanishini istab, hayol qilib ulg‘ayadi. Muso bobosi bilan bo‘lgan suhbatida, cho‘llar va tuyalarni qumsab so‘zlagan bobosiga o‘zining ulkan tasavvuridagi o‘ylarini bayon etadi, yoshgina bolaning hayollarini qandaydir bir tuyalar emas, mevalari turli xil bo‘lib pishgan daraxtlari ko‘p bo‘lgan, suvlari serob oquvchi bog‘ bo‘lsa, yashillik bo‘lsa, salqin havoda qushlar kezsa, bu hayollar bir o‘rinda davrning ijtimoiy ahvolini aks ettirsa, shu bilan birgalikda yosh avlodning ruhiyatiga tasir qilayotgan asosiy omillarni ham ko‘rsatadi. Olti yoshli bolaning dala haqidagi o‘ylari, bog‘ haqidagi o‘ylari uning tabiatidagi go‘zallikka, yaratilishlarga bo‘lgan oshufta qalbli inson bo‘lib ulg‘ayayotganligidan darakdir.

Har bir davr insonlarining mushtarak orzu va umidlari bo‘ladi. Oybek yashagan davrda va makonda aholi qatlami zich va qarindoshlar bir-birlariga yaqin joylashganligi sababli, hattoki, tom ustilari bir biriga qo‘shilib ketgan, yoz kunlarida ayollar tom osha yurib qarindoshlarinikiga o‘tishgan. Hovlilar tor, bog‘ yaratish istagi esa insonlarni qiynab qo‘ygan. Itimoiy muhit og‘irligi bois alohida yer olib bog‘

⁴⁶ N.Karimov.Oybek.-T.: “Yosh gvradiya”, 1985

yaratish uchun katta mablag' kerak bo'lgan. Shu sababli, yaxshi hayot tasavvurlari insonlarning hayoliy mahsulida shakllanib boravergan..

Zarifa opaning xotirlari shuni ko'rsatadiki, Oybek o'zi istaganidek bog' yaratgan, bog'ga mehrini to'kib xizmat qilib va uni gullata olgan.⁴⁷ 40-yillarda dunyoda urush nafasi ufurib turgan paytlarda Moskvadagi Butunittifoq tinchlik tarafdorlarining 1-konferensiyasi uchun delegatsiya a'zolari bilan bo'lgan parvozda samalyot Aktyubinsk shahridagi bekatga qo'ngach, havoning musaffoligi va ochiqligi, keng cho'l-u biyobonlardan esib kelgan yoqimli shabada Oybekning dil-u jonini qitiqlab o'tganligi bois yonidagi yosh hamrohi akademik Aziz Qayumovga samimiylik bilan yelkasidan tutib, beixtiyor so'z qotadi:

“Qarang, qanday bepayon yerlar! Qanday musaffo va go'zal havo! Tabiatning bag'ri naqadar keng... Yer-hayot manbai, u kishilarga hali necha-necha asrlar davomida oziq va bahra beradi. Bu yerlarda qo'rg'oshin emas, bug'doy ekish kerak!...”⁴⁸

Oybekdagi samimiylik tuyg'ularini Naim Karimov shunday ifodalaydi: „Oybek qalbining tomirlari oddiy, jafokash va mehnatkash xalq hayotining eng teran qatlamlariga borib taqaladi“, — Adib bilan safarda birga bo'lgan kishilar uning chol va kampirlar bilan qanchalik samimiy suhbatlar qurgani, xuddi mehribon uka yoki farzanddek munosabatda bo'lganini hayratlanib eslaydilar. Bu Oybekning oilada yoshi ulug' insonlar bilan birgalikda yashab kamol topganligidan va uning tarbiyasiga va ruhiyatiga yoshi ulug' insonlarga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatish kabi o'zbekona ruhiyat singdirilganligidan dalolat beradi, „Safardosh birodarlari shahodat berishicha, adib kosiblar bilan yonma-yon o'tirib, mahsi tikkan, dehqonlar bilan baqamati ketmon chopgan, ayollar bilan birga paxta tergan“. Oybek ushbu kirishgan jarayonlar unga bolalik xotirlarini yodga solgan bo'lsa ajab emas. Oybek yoshlikda bobosining ustxonasi bilan bog'liq xotiralar chizginini aniq ifoda etgan. O'ynab yurgan holda

⁴⁷ N.Karimov. Oybek va Zarifa.-T.: "O'zbekiston", 1990

⁴⁸ N.Karimov. Oybek.-T.: "Yosh g'radiya", 1985, 171-bet

charmlarni o'z ixtiyoricha kesib tashlaganini, bu holatga tog'asning norozilik bildirishi, iqtisodiy tanglikka qaramay bobosi o'z qo'llari bilan tikib bergan kovush xotiralari hammasi birgalikda uyg'onadi. Insonning samimiyligi go'zal va sog'lom muhitning samarasi hisoblanadi, samimiylilik ufurib turguvchi inson yillar davomida o'z ustida ishlab o'qigan, mehnat qilgan va mashaqqat chekkan bo'lishi lozim. Oybekdagi samimiyat mana shu yillarning izi bo'lib muhrlangan. Oybek umrining yillar davomida mehnati va samimiyati sabab oddiy xalqning va hamkasb birodarlarining hurmati va e'tirofiga erishib keldi.

Zamondosh yozuvchi, adib Abdulla Qahhor: „Oybek xalq dilining tarjimoni“- deydi, Oybek esa ushbu iborani „Xalq qalqoni“-deya o'zgartirgan. Qaraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupov adibni butun qoraqalpoq xalqi hurmat qilganligini, uni SSSR Oliy sovetiga deputat qilib saylashganini, bunga javoban adib xalqqa yuksak madaniyat, xalqparvarlik, aql-farosat va kamtarlik bilan javob qaytarishni e'tirof etadi.

«Ko'ngil yo'li bilan Oybekka yaqinlashgan odam o'zini yangidan tug'ilganday yoki his-tuyg'ulari tozarib, yangilanganday tasavvur qiladi. Ko'ngli qattiq, hislari kirlanib, mog'orlanib yotgan kimsa Oybek dunyosiga oshno bo'lgandan so'ng ham ich-ichidan bir pushaymonlik sezmasa, undan odamiylik kutmaslik lozim», tanqidchi agar bugun birov mendan: «Sen qiyomatda nima bilan faxr etgaysan?», — deb so'rasa, ishoning, «Oybekday sodiqlaming ko'ngli bilan», - deb javob bergan bo'lardim, deydi. Oybekning ko'ngli — chin go'zallik va sevgi chashmasi, mehr va shafqat gulshani, ijod va ilhom ummoni. Lekin u haqda qancha gapirmang, baribir ta'rif-u tavsifga sig'dirib bo'lmaydi uni. O'zini «So'nggi darvesh» sanagan Oybek hali to'la kashf etilmagan Sir ekanligini, «Oybek quyosh va oy sog'inchiga sohib muazzam bir o'lka» ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Oybek ijodiga bag'ishlangan bu suhbatlarni o'qir ekan, kitobxon XX asr o'zbek adabiyotining

chinorlaridan biri bo‘lgan shoir va adib haqida yangicha qarashlarga, talqinlarga ega boladi, Oybekni o‘zi uchun qayta kashf etadi.⁴⁹

Adib insoniyligi har bir davrda ham keng va xush fe‘llik bilan yodga olinadi. Oybek bilan birga o‘qigan Homil Yoqubov va Subutoy Dolimovlarning eslashlariga qaraganda, u texnikumda talabalik vaqtida o‘quvchilar o‘rtasida juda katta hurmatga ega bo‘lgan. “ U talabalar ichida har narsaga qiziquvchanligi bilan ajralib turgan. U g‘oyatda tashabbuskor bo‘lgan va har xil bahslar, adabiy kechalar, she‘rxonliklarga bosh-qosh bo‘lgan. Oybekni bilganlar uning aql-zakovati teran bo‘lganligini aytishadi, shu bilan birga, uning xarakterida ijtimoiy adolat tuyg‘usi kuchli bo‘lgan. Ma’lumki, har qanday jamiyatda ham ijtimoiy adolatni barpo etmoq uchun kurash juda katta shijoat va jasoratni talab qiladi. Bunday odam ko‘p jihatdan ko‘krigidagi yuragini sug‘urib olib, zulmatda yo‘ldan adashgan yurtdoshlariga, qabiladoshlariga yo‘l ko‘rsatgan afsonaviy Dankoni eslatadi.⁵⁰

Ijtimoiy muhit sabab butun davr bolalarida kattalarcha mas’uliyatning o‘z gardinlariga ortganligi ayon ko‘rinib turadi. Bolalar ishlashga majbur bo‘lishgan, ammo Oybek yashagan ijtimoiy muhitda, ayniqsa uning oilasida o‘qishga, o‘qitishga bo‘lgan qiziqish-istak kuchli bo‘lgan. Yangibozordagi taqachilarning holatini ko‘z oldimizga keltiramiz, taqachilarning farzandlari ham ular bilan qo‘shilib ishlaydi, yalang oyoq, suv-terda ishlaydi. Bozorda aylanib yurgan Muso va A‘zamni ko‘rgan taqachining o‘g‘li ularga qarab hayron holda “angrayib” qoladi. Ularning nazdida bu bolalar bashang kiyingan, ustilari toza, qorni to‘q, g‘amlari yo‘q, bekorchi olifta bolalar bo‘lib ko‘rinadi. Yosh Muso o‘zini hech to‘q oila farzandi deb hisoblamaydi, aslida, ulardan to‘qroq yashaydigan oilalar ham bor edi. Taqaching gaplari uning g‘ashiga tegadi.

⁴⁹ O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Darslik/B. Nazarov va boshq.; -Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012, 335-b.

⁵⁰ «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2004 yil 44-soni

Turg'un Musoning bolalikdagi eng yaqin do'sti, kambag'alligi sabab nog'ora sotib ololmaydi, lekin u nog'ora ovozigga oshiq va uni yuragiga joylagan. Nog'ora orzusini doim Musoga xasrat qiladi. Musodagi nog'ora ishtiyoqi ham so'nmas, ammo oilaviy holati to'g'ri kelmaganligi bois hech ololmaydi. "Boyvachcha" maktabdosh do'stining nog'ora olganligini eshitganda, nog'orasini uyidagilari kechga qolmay yetkazib berishganini, ularning oilasida „pul“ – degan narsa serobligini uqtirib qo'ymoqchi bo'layotganligini eshitgan Musoning hayollarida: *“Buning ham oyisi uzoq tunlar qadalib o'tirib, kerosin bo'lmaganda sham yorug'ida jiyak tiksa, o'zi menga o'xshab jiyak sotib bir necha tangani ro'mol uchiga tugib, uyga yugursa, mundaqa valdiramas edi”*, – degan o'ylar kechadi. Yosh Musoning bu kabi teranlik bilan mulohaza yuritishi og'ir vaziyatlardan toblanib ulg'ayayotganligidan darak beradi.

Oybekdagi mas'uliyat va ishga kirishuvchanlik xislati, u kirishgan ish oxiriga yetkaziladigan, chin vijdon bilan bajariladigan vazifaga aylanishi, yoshligidan tarbiyadagi ona va opaning mustabitligi sabab bo'lib shakillangan. Shuningdek, unga ijod va uning mas'uliyati ham yoshlikdan singdirilib his ettirib borilgan. Keyinchalik bu xarakter uning hayoti davomida ijoddagi katta muvaffaqiyatlariga ham sabab bo'lgan. U serg'ayrat ijodkor bo'lib yetishadi. Urush davrida bombordimon vaqtlarida ham she'r yozib, ijod mas'uliyatini o'z zimmasiga chin vijdon bilan qabul qilolgan shoir sifatida nomoyon bo'ladi. Bu mas'uliyatlik unga yoshlik onlarida bobobuvusidan ilmga va ishga muhabbat ruhi bilan meros bo'lib qolgan.

Oybek biografiyasida yozuvchi iqtidorli va zehni o'tkir bola sifatida namoyon bo'ladi. Yosh do'sti A'zam bilan suhbat jarayonlarining tasviri kishida olti-yetti yoshdagi bolalar zehning kuchliligi va ularning o'z fikrlarini tiniq ifoda eta olishi aql kishilarini hamisha hayrat va qiziqish hissini qoldiradi.

– Yaxshi-ya, o'rtoq! – deydi A'zam qo'lini keng yoyib. Tinch joy. Tog'larga qara! Havoning pokligini ko'r! Juda yaxshi ko'raman Yangibozorni.

A'zam va Muso bozor aylanib kitob rastalariga kelib qolishadi. Undan „Ming bir kecha“ kitobini izlab topishib va baqqoldan o'qib berishlarini iltimos qilishadi.

International Conference on Education and Innovation

– Jon amaki, “Ming bir kecha“ni jinday o‘qing, eshitamiz! – yalinaman baqqolning pinjiga tiqilib.

– O‘qirdim, ammo yoshsan, go‘daksan. Arablarning bu kitobi juda ibratli. Xayol olami katta, lekin uyat gaplari ham ko‘p, – deydi baqqol boshini tebratib.

Men qistayman. Baqqol uzoq axtarib, bir hikoyatni topadi, o‘qiydi, men jim tinglayman.

– Amaki,hikmatlar ko‘p ekan.Tasviri ham joyida. – deyman.

– Arablarda shunday hikoyatomuz hikoyatlar ko‘p, – deydi u.

Musoning g‘ayrati uning onasida farzandining tolesiga nisbatan bo‘lgan ishonch hissini oshirib boradi.

Men hayolimda o‘zimni tog‘lar orasida tasavvur etaman. Esiz-esiz Xumson. Men dadamning o‘rnida bo‘lsam, o‘g‘rini darrov ushlardim-da,o‘xshatib do‘pposlab, molarni cho‘z,-derdim o‘g‘riga. Bu gaplarni eshitgan Shahodat aya sekingina jilmayib qo‘yadi.

Naim Karimovning tabiricha, go‘zallikni, so‘z san‘atini qadrllovchi xalq qanchalik savodsiz bo‘lsa ularning og‘izaki ijodi shunchalik taraqqiy etgan bo‘ladi, deya ta’kidlaydilar ustoz, adabiyotshunos. Xalfalarning qo‘shiq kuylashi, qo‘shni ayollarning chiqib opasi Karomatning g‘azallarini jon qulog‘i bilan eshitishi-yu, aravakashning qo‘shiq hirgoyi qilishdagi istedodi, samovarlarda yangaragan do‘mbira ovozi va qo‘shiqlar, qozoq to‘ylarida urfga aylangan kelin–kuyov aytishuvlari, san‘atga bo‘lgan qiziqish nafaqat o‘zbek xalqining, balki bitta ijtimoiy muhitda yashagan barcha xalqlarning ham og‘riqli nuqtasi sanalgan. Muso A‘zam bilan birgalikda o‘ynab, qozoq xalqining to‘ylariga duch kelib qolishadi, mehmondo‘stlik bilan qabul qilgan qardosh xalqning kelin bilan kuyov aytishuv marosimini eshitishib kunni kech qilib qo‘yganliklarini bilmay qolishadi. Musoning yana qolgisi keladi-yu, ammo A‘zamning qistovi bilan uyga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu yerda adibdagi ijodga va san‘atga bo‘lgan muhabbatning kurtaklari shakllanayotgan davr ko‘rinadi.

Maktab kezlarida nog‘ora olganligini maqtanib “boyvachcha” maktabdoshi Musoni uyiga taklif qiladi. Nog‘arani bir maqomda chalishni bilmagan “boyvachcha”

o‘z ustidan kulayotgan Musoga nog‘orani tutqazadi. Ammo Oybekning uquvi baland bo‘lganligi va san‘atga oshiqiqligi sabab, shuningdek, kuzatuvchan o‘rganishlari sabab yaxshigina nog‘ora chalib beradi. Shu o‘rinda Oybekdagi yana bir o‘ziga xos xislat ko‘rinadi, uning uquvli bola bo‘lganligi, qiziqish va kuzatishlari orqali boshlagan ishlarini astoydil samarli natijalar bilan yakunlay olishidir. Undagi san‘atga muhabbat, qiziqish va hayajon yillar o‘tsada, Oybekni tark etmaydi.

Oybekning texnikumdosh talabalar orasida Subutoy Dolimovning qobilyati o‘zgacha bo‘lgan. U hikoya va she‘rlar bitib, shuningdek, dutor ham chalib turgan. Oybek “Ushshoq kuyi” ni sevgan. Subutoy Dolimov bilan ko‘rishgach: “Qani Subut, bir “Ushshoq” eshitaylik! Yurak orom olsun!” - deb dutorni unga tutqizib, qayta qayta eshitganlar.

San‘atga, musiqaga va ijodga bo‘lgan muhabbat-qiziqish barcha adabiyot vakillarida ham uchraydi. Oybekka zamondosh yozuvchi adiblar G‘.G‘ulom va A.Qahhor ijodida ham bu holatlar uchraydi. (bu joylar yana kengaytiriladi)

“Bolalik xotirlarim” qissasida bozor tasvirida “gramafon” obrazi beriladi:

Yangi yaraqlagan quticha ustiga katta bir karnay o‘rnatilgan. Qutichaning qulog‘ini burasa, ustida qop-qora lagancha gir-gir aylanadi. Qutichaning ichidan birov karnay orqali qo‘shiq aytganday bo‘ladi. Ushbu karnaydan kuylar, qo‘shiqlar yangraydi. Hammasi ruscha, ammo meni taajjublantiradi, qiziqtiradi.

Urishib, tortishib o‘tirgan boy bolalarning biridan asta so‘rayman:

-Yopiray, tilsinmi o‘zi? Oti nima?- deyman. Bolalar qotib-qotib kulishadi.

- Buning oti grammofon. Toshkentda yo‘q narsa. Dadamlar Moskvadan olib keldi yaqinda,- deydi ko‘zlarini o‘ynatib bir o‘g‘ilchasi. -Hamma gap mana shu laganchada, shu chaladi kuylarni,- deydi qo‘li bilan aylanib turgan laganchani ko‘rsatib. - Juda ko‘p laganchalar, xilma- xil ashulalar. Bas, boshqa vaqt eshitasan,- deydi shartta grammofonni yig‘ishtirib.

Grammofonning ovozi o‘chganiga achinaman. Havasim keladi, ushlab ko‘rsam, yana eshitsam, deyman ichimda... Ko‘chaga chiqib ketaman.

Zamondosh yozuvchi G'.G'ulomning avtobiografik "Shum bola" qissasida ham „gramafon“ tasviri keltiriladi: Qaymoq bozorining burilishida, Mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo‘lib, unda grammofon chalinadi. Turli-tuman plastinkalar orqali To‘ychi hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg‘ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi. Choyxonada joy yetishmaydi. Uzun rasta, Juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo‘sh vaqtlarida bu choyxonaga yig‘ilib mehmonxonalardek o‘rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-bodom, murabbonisholda, obi non, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o‘tirishardi.³

Abdulla Qahhorning "O‘tmishdan ertaklar" qissasida: "Yana bir kecha bozorshabga chiqqanimizda dadam meni maydonning to‘ridagi samovarga olib bordi. Bu yerda ham odam ko‘p, g‘ovur kulgi. O‘rtaga osilgan kattakon, juda ham alomat bir chiroq ko‘zni qamashtirib ayvon va sahnadagi odam to‘la so‘rilarni kunduzday yoritib turardi. So‘rilarni oralab ayvonga tomon ketayotqanimizda birov meni ko‘tarib so‘rining chetiga o‘tkazdi. Dadamga ham joy berishdi. So‘rining ostidami, tepasidami kimdir ingichka, lekin juda o‘tkir tovush chiqarib ashula aytmoqda edi. Men alanglab qolgan edim, dadam imo bilan kattakon, quchoqqa sig‘maydigan bir dona karnaygulni ko‘rsatdi. Qarasam, ashula sariq qutichaga sanchib qo‘yilgan shu karnaygulning ichidan chiqayotgan ekan. Men «moshina-qo‘shiq» deb eshitganman, lekin o‘zini ko‘rmagan edim, moshina-qo‘shiqqa tikilganimcha qoldim. Ashula tugagandan keyin yana shu karnaygulning ichidan: «Otangga rahmat, Hamroqul qori!» degan tovush chiqdi. Nazarimda karnaygul ostidagi sariq qutichaga soqol-mo‘ylovli kichkina-kichkina odam-chalar qamab qo‘yilganga o‘xshardi."⁵¹

Bolalik xotiralar yodga olinganda eng muhim, eng esda qolarli voqea va jarayonlar jonlanadi. Demakki, shu davr uchun yangilik bo‘lib kirib kelgan, o‘zidan kuy taratuvchi, ohang taraladigan musiqa texnologiyasi hamisha go‘zallikni izlovchi ijodkorlar nazmidagi katta bir yangillik sifatida muhrlangan.

⁵¹ Abdulla Qahhor. «O‘tmishdan ertaklar». -T.: «Yoshlar matbuoti», 2023

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'.G'ulom. «Shum bola». «Yangi asr avlodi», 2015
2. Oybek. «Bolalik xotiralarim». –T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019
3. Abdulla Qahhor. «O'tmishdan ertaklar».–T.: «Yoshlar matbuoti», 2023
4. N.Karimov. Oybek. –T.: “Yosh g'radiya”, 1985
5. N.Karimov. Oybek va Zarifa. –T.:”O'zbekiston”,1990
6. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Darslik. B. Nazarov va boshq.; –Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
7. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2004 yil 44-soni
8. B.Karim. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. –T.:”Muharrir nashriyoti”. 2011, 22-bet.

